QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПОЧКИ	1210
Солиев Абдумаджид Джабборович	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIVAVIY HIMOLA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1220
G'aniyeva Nozima Alijon qizi	
ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. Djabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIYIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каюмов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	



ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

Azim Pulatov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi Akademiyasi tayanch doktoranti
E-mail: pulatovazim@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy turistik klasterlar konsepsiyasi va ularni boshqarishning nazariy-uslubiy asoslari tadqiq etilgan. Zamonaviy turistik klasterlar konsepsiyalaridan kelib chiqib, turizm klasterini shakllantirishda global tendensiyalar (raqamli transformatsiya, maqsadli brending, davlat-xususiy sheriklik) tahlil qilingan. Turistik klasterlarni yaratish Total Cluster Formation Framework (TCFF) modellarini o'rganish asosida hududiy turizmning raqobatbardoshligini oshirish va mahalliy brend yaratish, turizm klasterlarini shakllantirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turistik klaster, klaster boshqaruvi, maqsadli brending, mintaqaviy turizm, barqaror turizm, qiymat zanjiri, raqamli turizm, biznes klasterlari, tarmoq boshqaruvi.

Abstract. This article examines the concept of modern tourism clusters and the theoretical and methodological foundations of their management. Based on the concepts of modern tourism clusters, global trends in the formation of tourism clusters (digital transformation, targeted branding, public-private partnerships) are analyzed. Based on the study of tourism cluster creation models (Total Cluster Formation Framework (TCFF)), practical proposals and recommendations are developed for increasing the competitiveness of regional tourism and creating a local brand, and forming tourism clusters.

Key words: tourism cluster, cluster management, destination branding, regional tourism, sustainable tourism, value chain, digital tourism, business clusters, network management.

Аннотация. В статье рассматривается концепция современных туристических кластеров и теоретико-методологические основы их управления. На основе концепций современных туристических кластеров анализируются мировые тенденции формирования туристических кластеров (цифровая трансформация, целевое брендинг, государственно-частное партнерство). На основе исследования моделей создания туристических кластеров (Total Cluster Formation Framework (TCFF)) разрабатываются практические предложения и рекомендации по повышению конкурентоспособности регионального туризма, формированию локального бренда и формированию туристических кластеров.

Ключевые слова: туристический кластер, управление кластером, брендинг дестинации, региональный туризм, устойчивый туризм, цепочка создания стоимости, цифровой туризм, бизнес-кластеры, управление сетями.

KIRISH

Zamonaviy turizmدا sohani klaster usulida boshqarish hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Turistik klasterlar – bu geografik jihatdan yaqin joylashgan, o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatuvchi turistik tashkilotlar, xizmat ko'rsatuvchilar, ta'minotchilar va ilmiy-ta'lim muassasalarining tarmog'i bo'lib, ular sog'lom raqobat va hamkorlik orqali turizm xizmatlarini ko'rsatadi. Bugungi kunda pandemiya, iqlim o'zgarishlari va raqamli transformatsiya kabi global murakkabliklar turizm klasterlarining nazariy va uslubiy asoslarini ilmiy tadqiq etishni taqozo etmoqda.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasining barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash yo'nalishi 58-bandida “O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish” vazifasi belgilangan. Mazkur ustuvor vazifani amalga oshirish turizm sohasida zamonaviy klasterlarni tashkil qilish va ularni samarali boshqarish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda har bir turistik salohiyatga ega davlat ichki va kirish turizmini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Shuning uchun turistik klasterlarni tashkil etish va samarali boshqarish tizimini yaratish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarni tizimli tahlil qilishga e'tibor qaratish lozim.



Hozirgi globallashtirish va transformatsiyalashuv sharoitida turizmni yanada rivojlantirish uchun bir qator ustuvor yo'nalishlar bo'yicha takomillashtirish ishlari talab etiladi. Xususan, chekka hududlarda zamonaviy turizm infratuzilmasini bosqichma-bosqich rivojlantirish, viloyatlararo ichki transport xarajatlarini maqbullashtirish hamda turistik toifadagi turar joy va dam olish maskanlari tarmog'ini kengaytirish bo'yicha salmoqli imkoniyatlar mavjud. Ko'plab sayyohlik obyektlarining rekonstruksiya va renovatsiya dasturlari orqali jozibadorligini oshirish, turizm sanoati bo'yicha xizmat ko'rsatish standartlarini xalqaro talablarga moslashtirish turizm oqimini barqaror oshirishga xizmat qiladi.

Magistral yo'llar bo'yida yuqori sifatli yo'l-servis infratuzilmasini yaratish, hududlarning ichki va xalqaro miqyosdagi turizm salohiyati bo'yicha axborot platformalarini raqamlashtirish ushbu sohaning raqobatbardoshligini oshirishga zamin yaratadi. Shuningdek, turizm xizmatlari va mahsulotlarini xalqaro ommaviy axborot vositalarida, turizm ko'rgazmalari va yarmarkalarida doimiy targ'ib qilish jarayoniga raqamli integratsiya kiritilishi O'zbekistonning global turizm bozoridagi o'rnini mustahkamlash imkonini beradi.

Albatta, klaster firmalarning qo'shma faoliyati uchun oddiy birlashishidan ancha murakkabroq hodisa bo'lib, u chuqur texnologik hamkorlikni nazarda tutadi. Kompaniyalar nafaqat klaster ichida hamkorlik qiladi, balki ma'lum sohalarida bir-biri bilan tanlab raqobatlashishda davom etadi. Bu uzluksiz mahsulot va texnologik innovatsiyalarni rag'batlantiradi, ularni amalga oshirish ishlab chiqarishning barcha omillarining mahsulдорligini oshirishga hamda innovatsiyalarning tez va keng tarqalishini ta'minlashga qaratilgan¹.

Turizm sohasida klaster yondashuvi hududlarning turistik jozibadorligini oshirish va uning turistik salohiyatini ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Ilg'or xorij tajribasi asosida shuni ta'kidlash mumkinki, turizm sohasida klasterlar kichik va o'rta korxonalardan iborat tizim sifatida shakllanib, istiqbolda yirik turistik klasterlar sifatida bir nechta kompaniya va firmalarni birlashtiradi. Bu o'z navbatida turizm sohasini rivojlantirishda yagona milliy yondashuv va yagona milliy siyosatni amalga oshirishga zamin yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm sohasida klasterlarni tashkil qilish Maykl Porterning (1990) sanoat klasterlari nazariyasi asosida shakllanib (aglomeratsiya effektlari — bilim almashinuvi, ishchi kuchi — va tashqi iqtisodiy hamkorlik orqali raqobatbardoshlikni oshirish) rivojlanib kelmoqda. Shveysariyaning eng nufuzli turizm olimlaridan biri Tomas Biyeger turizm qiymati zanjiri (Bieger, 1997) konsepsiyasi bo'yicha vertikal va gorizontal integratsiyani o'z ichiga oladi, bu yerda mahalliy attraksionlar (muzeylar, tabiiy park va h.k.), transport va qo'llab-quvvatlovchi xizmatlar birlashgan holda maqsadli turizm mahsulotini yaratadi. Masalan, madaniy turizm klasterlar meros (UNESCO ro'yxati) va ijodiyot (hunarmandchilik, festivallar) elementlarini birlashtiradi².

Zamonaviy konsepsiyalarga muvofiq, turistik klaster — bu geografik jihatdan yaqin joylashgan va o'zaro bog'liq bo'lgan korxonalar, ta'minotchilar, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va muassasalar to'plamidir.

Turistik klaster — kompleks turistik xizmatlar hamda turist va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan boshqa qo'shimcha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar majmui.

Turizm mahsuloti — turistning sayohatlari davomida uning ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun mo'ljallangan turistik xizmatlar, shu jumladan turar joy, ovqatlanish, transport va ekskursiya xizmatlari, ishlari va mahsulotlari majmui³.

Ukrainalik tadqiqotchilar O. Litvin va Ye. Suçenko hamda boshqa olimlar "Ukraina turizm sanoatining raqobatbardoshligini oshirish uchun turizm klasterlarini rivojlantirish mexanizmlari" nomli maqolasida turizm klasterlari turizm sanoatini rivojlantirish uchun samarali vosita ekanligini ta'kidlab, turizm klasterlarining faoliyati korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishga, resurslardan optimal foydalanishga, innovatsiyalarga, turizm bozori ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sirga va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini ilmiy tahlil qilishgan⁴.

O'zbekistonda ham barcha hududlarda, jumladan Buxoro viloyatida turizm sanoatining raqobatbardoshligini oshirish uchun turizm klasterlarini tashkil etish va samarali boshqarish tizimini joriy etish hududlarning kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. I.f.d., prof. A. Norchayev o'zining "Turistik-rekreatsion resurslari yuqori bo'lgan mintaqalarda klasterlarni tashkil qilish mexanizmlari" nomli maqolasida respublikamiz turizmida yangi yo'nalishni joriy qilish va turizm infratuzilmasini shakllantirishda klaster usulidan keng foydalanish masalasi haqida fikr yuritib, turistik-rekreatsion resurslari yuqori bo'lgan mintaqalarda turizm infratuzilmasini takomillashtirish

1 Valeeva S. V. Razvitiye konsepsii klaster'nogo podxoda v turizme // Natsionalnye interesy: prioritety i bezopasnost. 2022. №1 (334). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitiye-kontseptsii-klaster'nogo-podxoda-v-turizme>

2 Bieger, T. (1997). Die Wertschöpfungskette als Instrument der strategischen Analyse im Tourismus. In T. Bieger (Hrsg.), *Tourismus-Lehrbuch* (1. Auflage, S. 67–89).

3 Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 30 dekabrda 915-son qarori // <https://lex.uz/docs/7303189>

4 Litvin O., Suçenko O., Kyrylyuk I., Chvertko L., Neçadym L., Povoroznyuk I. & Tymchuk S. (2025). Mexanizmy razvitiya turistskix klasterov dlya povysheniya konkurentosposobnosti turistskoy otasli ukrayni. Teoriya i issledovaniya upravleniya dlya selskogo biznesa i razvitiya infrastruktury, 47(1), 153–161. <https://doi.org/10.15544/mts.2025.12>



va turistlarga xizmat ko'rsatishda yaqin kelajakdagi o'zgarishlarga moslashtirish, rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish kerakligini ta'kidlagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi "2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 87-son farmonida turizm xizmatlarini raqamlashtirish va diversifikatsiya qilish vazifasi belgilangan. Yangi tashkil etilayotgan turizm klasterlarini shakllantirishda boshqaruv jarayonini raqamlashtirish turizm sohasida optimal qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Xitoy Fan va Texnologiya Universiteti Menejment Maktabi tadqiqotchilari Abu Bakkar Siddiqiy, Shak Forid, Li Yong va Anna Min Du kabi olimlar "Sun'iy intellekt barqaror turizm o'sishi va iqtisodiy sikllar uchun katalizator" nomli maqolasida sun'iy intellektning (AI) barqaror turizm o'sishini rag'batlantirishdagi rolini va uning keyingi texnologik hamda iqtisodiy siklga ta'sirini yoritishgan. Sun'iy neyron tarmoq tahlilini an'anaviy ekonometrik modellar bilan birlashtirgan ko'p usulli yondashuvdan foydalangan holda, natijalar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt (AI) turizm samaradorligi va aqlli turizm salohiyatining muhim omili bo'lib, turizm barqarorligini oshiradi degan xulosaga kelishgan⁵.

Turizm klasterlarini boshqarishda asosiy texnologik katalizator sifatida sun'iy intellekt (AI)dan samarali foydalanish iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan birga hududlardagi ekologik barqarorlik va siyosiy barqarorlik kabi boshqa ta'sirchan omillarni ham tahlil qilish imkonini beradi.

Avstraliyalik tadqiqotchi Reychel Perkinsning "Kichik turistik bizneslar uchun hamkorlik strategiyasi sifatida biznes klasterlashuv" nomli dissertatsiya ishida mintaqaviy turizm yo'nalishlarida "turizm biznes klasterlari"ni o'rgangan. "Total Cluster Formation Framework" (TCFF) – klaster yaratishning qadamma-qadam ramkasi sifatida taklif etilib, turizm klasterini shakllantirish va boshqarishda manfaatdor tomonlarning foydali va zararli xatti-harakatlarini ko'rsatuvchi shkala ishlab chiqishni taklif etadi hamda klaster tufayli mintaqada brendini yaratish konsepsiyasini ilgari suradi⁶.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham hududiy turizm (Samarqand, Buxoro, Xiva, Farg'ona vodiysi, Chimyon–Chorvoq, Nurata, Aydarko'l, Qashqadaryoning Shahrisabz–Kitob yo'nalishi)ni rivojlantirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Kichik va o'rta turizm biznes shakllari rivojlanmoqda, lekin ularning aksariyati yagona brendsiz va raqobatbardosh emas. Shuning uchun ham turizm sohalari bo'yicha klaster tizimini yaratish, kooperatsiya asosida boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Ozarbayjonlik tadqiqotchi A. A. Ag'ayevning "Azerbayjanda turizm klasterlarini tashkil etish va rivojlantirish" mavzusidagi dissertatsiya ishida turistik klasterlarning mintaqaviy va iqtisodiy manfaatlarga muvofiq tarkibini yaratishga yo'naltirilgan model taklif etiladi. Bunday model hududdagi davlat organlari, xususiy biznes va turistik subyektlar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlaydi, shu bilan birga joydagi turistik brendingni kuchaytirish, imidj yaratish va turizm xizmatlarini integratsiya qilish uchun zamin yaratadi. Turizm sohasida klasterlarni tashkil etish orqali boshqaruvni tashkil etish resurslar (infratuzilma, axborot, mehnat)ni to'plash, transaksion xarajatlarni kamaytirish va qiymat zanjirini tashkil qilish uchun mexanizm bo'lib xizmat qiladi, degan g'oya ta'kidlanadi⁷.

O'zbekistondagi turizm tarmog'i hududiy jihatdan diversifikatsiyalashgan (Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy markazlar, Toshkent shahridagi biznes-turizm, Farg'ona vodiysidagi hunarmandchilik turizmi, Navoiy va Qashqadaryodagi ekologik-sayohat marshrutlari, Sirdaryo va Jizzaxdagi agroturizm) hisobga olib, turizm klasterlarini samarali boshqarish tizimini yaratish mumkin. Davlat, xususiy sektor va turistik subyektlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash orqali hududiy turistik brendingni kuchaytirish, brendlar klaster platformasini yaratish turistik xizmatlar va mahsulotlarning qiymat zanjirini yaratish imkonini beradi. Bu o'z navbatida turizm sohasida yangi ish o'rinlarini yaratish, ichki va tashqi turizmning barqaror rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, institutsional tahlil, kontent tahlil, funksional tahlil, qiyosiy tahlil, analiz va sintez kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Mavzuga doir nazariy-tahliliy va amaliy-empirik ma'lumotlar tahlil qilindi. Birinchi bosqichda klassik va zamonaviy ilmiy adabiyotlarning tizimli tahlili (systematic literature review) amalga oshirildi. Tadqiqotda Scopus, Web of Science, Google Scholar bazalaridan ilmiy manbalar (Porter, Biger, Batler, Buxalis, Xvalager, Novelli va boshqalar) o'rganilib, turistik klasterlar konsepsiyasi, ularning boshqaruv mexanizmlari va global tendensiyalar tizimlashtirildi. Ushbu bosqich natijasida zamonaviy turistik klasterlarni boshqarishning nazariy ramkasi va uslubiy asoslarining konseptual modeli ishlab chiqildi.

5 Siddik, A. B., Forid, M. S., Yong, L., Du, A. M., & Goodell, J. W. (2025). Artificial intelligence as a catalyst for sustainable tourism growth and economic cycles. *Technological Forecasting and Social Change*, 210, 123875. <https://doi.org/10.1016/j.techfore.2024.123875>

6 Perkins, R. A. (2021). *Business Clustering as a Collaboration Strategy for Small Tourism Businesses Contributing to Regional Destination Branding* (PhD dissertatsiya). Griffith University. DOI: 10.25904/1912/4327.

7 Ag'ayev, A. A. *The Organization and Development of Tourism Clusters in Azerbaijan*. PhD Dissertation. Azerbaijan. // https://aak.gov.az/upload/dissertation/_qtisad_elmi_r/Avtoreferat-_Aligul_Agayev-20251.pdf



Ikkinchi bosqich (amaliy-empirik tadqiqot)da O'zbekiston hududlarida turizm klasterlarini takshil etish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar tahlil qilindi. Ma'lumotlar sifat tahlili (thematic analysis) va statistik tahlil usullari bilan o'rganildi. Total Cluster Formation Framework (TCFF) modelining O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan versiyasi tadqiq etildi va uning besh asosiy fazasi (initsiatsiya, ishonch shakllantirish, resurs integratsiyasi, rasmiylashtirish, barqaror faoliyat)ni amaliy sinovdan o'tkazish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati shundaki, maqolada ilgari surilgan taklif va tavsiyalardan "Turizm klasterlarini boshqarish", "Strategik menejment", "Turizm iqtisodiyoti va menejmenti", "Mintaqaviy iqtisodiyot", "Strategik qarorlarni qabul qilish" kabi fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy turistik klasterlarni boshqarishda "turistik klaster" tushunchasi ikkita asosiy yondashuvda talqin qilinishini hisobga olish lozim: birinchisi, turizm klasteri — geografik jihatdan lokallashgan, o'zaro bog'langan turizm subyektlari jamlanmasi sifatida qaraladi; ikkinchisi, turizm klasteri — hududning raqobatbardoshligini va barqaror rivojlanishini rag'batlantiruvchi boshqaruv mexanizmi sifatida qaraladi. Aynan turizm klasterlarini samarali boshqarish mexanizmlarini joriy etish ma'muriy xarajatlarni qisqartirib, optimal qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrda "Turistik klasterlar faoliyatini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 915-son qaroriga asosan "Turistik klasterlarni tashkil etish va ularga turistik klaster maqomini berish tartibi to'g'risida Nizom" tasdiqlandi. Mazkur Nizom turistik klasterlarni tashkil etish va ularga turistik klaster maqomini berish tartibini belgilaydi.

O'zbekistonda 2025-yilga kelib besh ta hududda turistik klaster (Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent atrofi va Farg'ona vodiysi yo'nalishlari) shakllantirilgan bo'lib, ularning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son⁸ Farmoni bilan tasdiqlangan "2019–2025-yillarda O'zbekiston turizmini rivojlantirish konsepsiyasi"da belgilangan.

Qiyosiy tahlil (benchmarking) usulidan foydalanib, Italiyaning Toskana, Fransiyaning Provans–Alp–Kot-d'Azur va Turkiyaning Kappadokiya turistik klasterlari bilan O'zbekistondagi Samarqand va Buxoro turizm klasterlarining (klaster koeffitsiyenti bo'yicha) asosiy ko'rsatkichlari solishtirilganda, Samarqandda turizm klasterlarining faoliyati kengayib borayotganligini ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval. Xalqaro va O'zbekiston turistik klasterlarining asosiy ko'rsatkichlari (2023-y.)⁹

Ko'rsatkich	Toskana (Italiya)	Kappadokiya (Turkiya)	Samarqand klasteri	Buxoro klasteri
Turistlar soni (mln/yil)	14,8	5,2	2,9	1,8
Klaster ichi kooperatsiya darajasi %	78%	65%	26%	21%
Davlat-xususiy sheriklik loyihalari soni	42	28	6	4
YAIMga qo'shgan ulushi %	13,2%	18,7%	4,1%	3,7%

TAHLIL NATIJALARI

O'zbekistonda turistik klasterlarni yanada samarali boshqarish uchun institutsional imkoniyatlar keng ekanini ko'rsatadi. Xususan, klasterlar faoliyatida "klaster boshqaruvchi kompaniya" (Cluster Management Organization) institutini joriy etish istiqbolda boshqaruvning malakali, professional va bozor mexanizmlariga asoslangan modelga o'tish imkoniyatini yaratadi. Bu esa klaster ichidagi koordinatsiya, rezidentlar o'rtasidagi hamkorlik va xizmatlar zanjirining integratsiyasini sezilarli kuchaytiradi.

Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish turizm klasterlarining moliyaviy barqarorligi va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash salohiyatini oshirishi prognoz qilinmoqda. Raqamli platformalar va DMO (Destination Management Organization) faoliyatini kuchaytirish esa klasterlar marketingi, brendingi va turistik mahsulotlarni global bozorlarga chiqarish jarayonida muhim raqamli transformatsiya imkoniyatlarini beradi.

⁸ <https://lex.uz/docs/-4143188>

⁹ UNWTO (2024), Turkiye Kültür ve Turizm Bakanlığı (2023) ma'lumotlariga ko'ra muallif hisob-kitoblari



O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024-yillarda turistik klasterlar hududlariga kiruvchi tumanlarda mehmonxonalar soni 42% ga (2019-yildagi 1 126 tadan 2024-yil 1 598 tagacha), turistik firmalar soni esa 68% ga oshgan. O'zbekistonda turizm sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida turizm xizmatlari eksporti so'nggi ikki yilda ikki barobar oshgan¹⁰ (1-rasm).



1-rasm. 2023-2025-yillarda O'zbekistonda turizm sohasida amalga oshirilgan ishlar¹¹

Aksariyat mamlakatlarda (Yaponiya, Turkiya, Malayziya, Ispaniya) turistik klasterlarning muvaffaqiyati subyektlar o'rtasidagi kooperatsiya va muvofiqlashtirish mexanizmlariga bog'liq ekanini aniqlangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, klaster ishtirokchilari o'rtasida axborot almashinuvi va yangi turistik mahsulotlarni birgalikda ishlab chiqish raqobatbardoshlikni oshiruvchi asosiy omil sanaladi¹².

Zamonaviy turistik klasterlarning asosiy tendensiyasi raqamli platformalardan foydalanishdir. Yevropada "Smart Tourism Destinations" dasturi, Janubiy Koreyada smart-klaster modellari turistik oqimni boshqarish, onlayn bron qilish va turist profilini tahlil qilish imkonini bermoqda¹³.

Jahon va mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarining faoliyatiga oid mahalliy va xalqaro olimlarning ilmiy ishlarini o'rganish asosida shuni ta'kidlash lozimki, "turizm va rekreatsiya klasteri" iqtisodiy toifasini turistlarga mintaq va hududda joylashgan turizm resurslaridan qulay foydalanishni ta'minlash sohasidagi munosabatlar bilan bog'langan yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar majmui sifatida belgilash imkonini beradi. Tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda turizm klasterlarini boshqarish va rivojlantirishga integratsiyalashgan yondashuv konsepsiyasi turli manfaatdor tomonlarning birgalikdagi faoliyatiga hissa qo'shadigan bir qator asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi, xususan, strategik rejalashtirish barcha ishtirokchilar — davlat organlari, soha vakillari, mahalliy hamjamiyat va biznesning manfaatlarini hisobga olgan holda turizmni rivojlantirishning birgalikdagi strategiyasini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Turizm klasterlarini yaratish har xil korxona va tashkilotlar birgalikda ishlashi, resurslar va innovatsiyalar almashinuvi uchun birlasha oladigan hududiy turizm klasterlarini shakllantirishni talab etadi. Infratuzilmani rivojlantirish esa turizm infratuzilmasiga, masalan, mehmonxonalar, transport, madaniyat obyektlari va turizm mahsulotini yaxshilashga xizmat qiladigan boshqa qulayliklarga qo'shma investitsiyalar kiritishni anglatadi. Marketing va reklama bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirish turizm brendini xalqaro miqyosda targ'ib qilishni kuchaytiradi. Ta'lim va kadrlar tayyorlash xizmat ko'rsatishning yuqori darajasini hamda xizmatlar sifatini ta'minlash uchun turizm sohasida kadrlarni tayyorlash

10 O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi 2024-yilgi hisoboti. // <https://gov.uz/uz/uzbektourism/sections/statistika>

11 O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi ma'lumotnomasi. // <https://gov.uz/uz/uzbektourism/sections/statistika>

12 OECD (2019). Tourism Trends and Policies. Paris. // https://www.oecd.org/en/publications/oecd-tourism-trends-and-policies_20767773.html

13 European Commission (2022). Smart Tourism Destinations Report. // https://smart-tourism-capital.ec.europa.eu/system/files/2022-05/Best%20Practice%20Report_2022_Update.pdf



va rivojlantirishning qo'shma dasturlarini shakllantiradi. Tabiatni va madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha qo'riqxonalar, me'moriy yodgorliklar va madaniy merosning boshqa obyektlarini saqlashga qaratilgan qo'shma strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish talab etiladi. Jamoatchilik ishtiroki esa mahalliy hamjamiyat va jamoat tashkilotlarini qarorlar qabul qilish jarayoniga hamda mintaqaviy darajada turizm sanoatini rivojlantirishga jalb etishni nazarda tutadi. Monitoring va baholash strategiyani amalga oshirish samaradorligini o'lchash va zarur tuzatishlar kiritish orqali natijalarni yaxshilash imkonini beradigan tizimni yaratishni talab qiladi.

Shu sababli, barqaror rivojlanish sharoitida turizm industriyasini samarali boshqarish elementlari sifatida integratsiyalashgan yondashuv va klasterlash O'zbekistonda integratsiyalashgan va barqaror turizm tizimini yaratish uchun davlat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar, jamoatchilik va boshqa tomonlarning yaqin hamkorligini talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, turizm klasterlari ma'lum bir hududda yuqori darajadagi ishbilarmonlik faolligini yuzaga keltiradi, sinergik ta'sirga ega bo'lgan yangi o'sish imkoniyatlarini yaratadi va mintaqaning turizm resurslarini samarali joylashtirish orqali mintaqaviy rivojlanishning hal qiluvchi omili va qimmatli manbasiga aylanadi. Turizm klasterlarini samarali boshqarish hududiy iqtisodiyotni jadal rivojlantirishda raqobatdosh ustunliklarni ta'minlovchi asosiy omillarni aniqlab beradi. Bularga tadbirkorlik tuzilmalarining tezkor munosabati va moslashuvi, klaster rezidentlarini yuqori malakali kadrlarni talab qiladigan innovatsion va noyob jarayonlarga jamlash hamda tuzilmaviy o'zgarishlar orqali xarajatlarni optimallashtirish kiradi.

O'zbekistonda hududiy turizm klaster tarmog'ining o'ziga xos tuzilmasini ishlab chiqish va uning doirasida o'zaro hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish nafaqat imtiyozlar va kelishuvlarni, balki infratuzilmani yaratishda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Hududlarda turizm va rekreatsiya klasterini loyihalashda zamonaviy uslubiy yondashuvlarni joriy etish turizm sohasini rekonstruksiya qilish va o'zgartirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda ularni amalga oshirish jarayonida davlat, biznes hamjamiyati, ilm-fan va jamoatchilik ishtiroki uchun asosga ega bo'lgan zamonaviy mexanizmni aks ettiradi.

Turizm sohasidagi xizmatlar va mahsulotlar yaratish tizimini klasterlashning asosiy omili tadbirkorlik subyektlari faoliyatini sherikliklarning bevosita va bilvosita ta'siri asosida birlashtiruvchi rag'batlantirish vositalarining mavjudligi bilan belgilanadi. Hududlarda turizm-rekreatsiya klasterini yaratishning tashkiliy-iqtisodiy modelini o'rganish hududiy turizm klasterlari faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Tahlil va natijalardan kelib chiqib, zamonaviy turistik klasterlarni boshqarishda quyidagi xulosalarga kelindi: turistik klasterlar jahon bozorida raqobatbardoshlikni oshiruvchi innovatsion mexanizm sanaladi; klaster subyektlari o'rtasidagi integratsiya va innovatsion faollik klaster samaradorligining asosiy drayveri bo'lib xizmat qiladi; raqamli transformatsiya turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega; huquqiy va institutsional asoslar klasterlarning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi; zamonaviy klasterlarning biznes modeli davlat, xususiy sektor va mahalliy jamiyat o'rtasidagi kooperatsiyaga tayangan holda shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Валеева С. В. Развитие концепции кластерного подхода в туризме // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2022. №1 (334). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-kontseptsii-klasterного-podhoda-v-turizme>
2. Bieger, T. (1997). Die Wertschöpfungskette als Instrument der strategischen Analyse im Tourismus. In T. Bieger (Hrsg.), Tourismus-Lehrbuch (1. Auflage, S. 67–89).
3. Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 30 декабрдаги 915-сон қарори // <https://lex.uz/docs/7303189>
4. Литвин О., Сущенко О., Кырылюк И., Чвертко Л., Нещадым Л., Поворознюк И. & Тымчук С. (2025). Механизмы развития туристических кластеров для повышения конкурентоспособности туристической отрасли Украины. Теория и исследования управления для сельского бизнеса и развития инфраструктуры, 47(1), 153–161. <https://doi.org/10.15544/mts.2025.12>
5. Siddik, A. B., Forid, M. S., Yong, L., Du, A. M., & Goodell, J. W. (2025). Artificial intelligence as a catalyst for sustainable tourism growth and economic cycles. Technological Forecasting and Social Change, 210, 123875. <https://doi.org/10.1016/j.techfore.2024.123875>
6. Perkins, R. A. (2021). Business Clustering as a Collaboration Strategy for Small Tourism Businesses Contributing to Regional Destination Branding (PhD диссертация). Griffith University. DOI: 10.25904/1912/4327.
7. Ağayev, A. A. The Organization and Development of Tourism Clusters in Azerbaijan. PhD Dissertation. Azerbaijan. // https://aak.gov.az/upload/dissertasion/_qtisad_elml_ri/Avtoreferat-_Aligul_Ağayev-20251.pdf
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги ПФ-5611-сон Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2019 й., 1-сон, 1-модда. // <https://lex.uz/docs/4143188?ONDATE=24.05.2023>
9. Ўзбекистон Республикаси Туризм қўмитаси 2024 йилги ҳисоботи. // <https://gov.uz/oz/uzbektourism/sections/statistika>



10. Ўзбекистон Республикаси Туризм қўмитаси маълумотномаси. // // <https://gov.uz/uz/uzbektourism/sections/statistika>
11. OECD (2019). Tourism Trends and Policies. Paris. // https://www.oecd.org/en/publications/oecd-tourism-trends-and-policies_20767773.html
12. European Commission (2022). Smart Tourism Destinations Report. // https://smart-tourism-capital.ec.europa.eu/system/files/2022-05/Best%20Practice%20Report_2022_Update.pdf



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>